
Shahar hokimi Adhamjon Nazirovlar xonadonida iftorlik qildi

Muborak Ramazon oyi munosabati bilan shahrimizdagi barcha mahallalarda ehtiyojmand oilalar vakillari hamda ijtimoiy daftarlarda turgan fuqarolar uchun iftorlik tadbirlari o'tkazilmoqda. Shuningdek, nogironligi bo'lgan, imkoniyati cheklangan shaxslar hamda yakka-yolg'izlar holidan ham xabar olinmoqda.

Bugun Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov 1-sektor hududidagi "Beglar" mahalla fuqarolar yig'ini Beglar ko'chasi 137-uyda yashovchi Adhamjon Nazirovlar xonadonida bo'lib, mazkur oilaning ijtimoiy va iqtisodiy holatini o'rgandi. Shahar hokimi tashabbusi bilan mahalla faollari ishtirokida shu xonadonda iftorlik dasturxonini yozildi.

Mazkur xonadonga Ramazon oyini ko'tarinki kayfiyatda hamda ro'zg'or kamchiliklarisiz o'tkazishlari uchun o'ndan ortiq turdagi zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari berildi.

Xonadon vakillari kutilmagan tashrifdan mamnun ekanliklarini ta'kidlashib, berilayotgan e'tibor uchun o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi.

2023-04-05 11:02:48